

PERFEKTIVLIK HAMDA PERFEKT TERMINLARI XUSUSIDA

A. Muminova ¹*Annotatsiya:*

Mazkur maqolada aspektuallik sohasida keng qo'llanadigan perfektivlik va perfekt terminlari borasida fikr yuritiladi. Muallif ikki terminni bir-biridan farqlash maqsadida ba'zi tilshunoslarni mavzu yuzasidan bildirgan fikrlarini tahlil qilib, o'z xulosasini bayon etgan.

Kalit so'zlar: perfekt, perfektivlik, zamon, temporallik, aspektologiya, kategoriya

doi: <https://doi.org/10.2024/68fjxh93>

“Perfektivlik” va “perfekt” terminlari, asosan, aspektuallikka oid bo'lib, ular o'zaro o'xshash bo'lsada, lekin bir-biridan farq qiladi. Jumladan, perfektivlik termini ko'proq rus tilidagi aspektuallikka oid adabiyotlarda uchraydi. Nemis tilidagi adabiyotlarda ushbu hodisani ifodalash uchun “rezultativ holat” – “der resultative Zustand” tushunchasi qo'llanadi. Ma'lumki, zamonaviy rus tilida perfekt zamon shakli mavjud emas. Ammo, shunday bo'lsada rus tilining qadim rivojlanish davrida perfekt shakli mavjud bo'lgan va u o'tgan zamonda sodir bo'lib, natijasi hozirgi zamonda davom etayotgan ish-harakatni ifodalash uchun qo'llangan. Rus aspektologiyasida “perfektivlik” atamasi bir ma'noli hisoblanadi. Nemis tilida esa mazkur termin turli ma'nolarga ega. Bundan tashqari perfektivlik semantik kategoriyasi nemis tilida perfekt zamon shakli va boshqa ifoda usullariga ega ekanligi sababli ham nemis aspektologiyasida uni ifodalash uchun “категория результативного состояния – rezultativ holat kategoriyasi” termini qo'llanadi. Ba'zi tadqiqotlarda “perfektivlik” va “rezultativ holat” tushunchalari sinonim sifatida qayd etiladi.

Umumtilshunoslikda perfektivlik muammolariga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, nemis tili materiali asosida T. S. Glushak, S. K. Semenova, S. E. Yaxontov, U. Zaker, V. P. Nedalkov, V. P. Litvinov, V. Ya. Mirkin, R. Z. Muryasov va boshqalarni misol keltirish mumkin. Yuqorida qayd etilgan mualliflar ishida asosiy e'tibor perfektivlikni matnda ifodalanish usullariga hamda rezultativ (konstruktsiya) qurilmalar tarkibida perfektivlikni ifodalanishi va qo'llanishiga qaratilgan. Nemis tilida perfekt zamon shakli T. Heyde – Zybatow, W. Bartsch, R. Bauerle, H. Brinkmann, J. A. Czochralski, K. Dieling, V. Ehrich, H. Vater, H. Glinz, U. Hauser – Suida, G. Hoppe – Beugel, W. Klein, S. Latzel, O. Teuber, K. Welke va boshqalar ishlarida o'rganilgan [Kamkina, 2010: 3-7].

Zamonaviy tilshunoslikda perfektivlik kategoriyasi masalasiga nisbatan turli qarashlar va yondashuvlar mavjud. Ba'zi tadqiqotlarda perfektivlik – aspektual semantik kategoriya sifatida qaralsa, boshqa mualliflar uni temporal xarakterga ega bo'lgan leksik-grammatik hodisa hisoblashadi, yana bir guruh olimlar esa uni “taksis” xususiyatiga ega kategoriya sifatida baholashmoqda. Bizning fikrimizcha, perfektivlik – bu aspektual semantik kategoriyadir, chunki

¹ Muminova Aziza Odilovna, Samarqand shahar Radjabova 8 uy

perfektivlik deganda biz, harakatning tugallanganlik, yoki oxirgi nuqtasiga borib yetganlik ma'nolarini tushunamiz. Bu borada o'zbek tilshunoslaridan B. Rizayev tadqiqotlarida ko'plab ishlar amalga oshirilgan bo'lib, olim o'z izlanishlarida turli aksional guruhlariga kiruvchi chegaralangan, chegaralanmagan, ikki aksional xususiyatli yurish-harakat fe'llarining aspektual vaziyatlardagi ma'nolarini yoritib, nemis tilidagi perfektiv fe'llarga ankommen, erreichen, stürzen, sich begeben, stürmen, finden, treffen kabilarni kiritgan. Olim perfektiv fe'l qaysi zamonda qo'llanishidan qat'iy nazar doimo perfektivlik, ya'ni tugallanganlik ma'nosini ifodalashini qayd etadi [Rizayev, 2003: 17].

J. V. Kamkinaning fikricha, perfektivlik kategoriyasining semantikasi bir qancha komponentlardan iboratdir. Jumladan, oldingi harakatning tugallanganligi, ya'ni fe'l leksemasi orqali ifodalangan harakatning o'z chegarasiga yetganligi perfektivlikning asosiy belgisi hisoblanadi. Shu sababli ham "tugallanganlik" va "perfektivlik" ko'pgina ishlarda sinonim sifatida qo'llanadi. Perfektivlik semantikasining yana bir komponenti – bu tugallangan harakatning rezultativligidir. Rezultativlik deganda muallif muayyan bir jarayon yoki harakatning natijasini tushunadi. Perfektivlik semantikasining keyingi komponenti – bu holatdir. Holat – perfektivlik kategoriyasining alohida va mustaqil komponenti sanaladi. Chunki perfektivlik kategoriyasining semantikasini aniqlashda tugallangan harakatning rezultativligi bilan birgalikda so'zlovchi yoki harakatning holati ham muhimdir. Maqolamizning diqqat markazidagi ikkinchi termin, ya'ni, perfekt zamon shaklining mavqei borasida ilmiy adabiyotlarda turli qarashlar va yondashuvlar mavjud. An'anaviy tilshunoslikda perfekt – fe'lning zamon shakli yoki aspektual kategoriya ekanligi borasidagi savol baxslidir. Bu borada to'rt xil gipoteza mavjud: 1. "zamon" (Tempushypothese), 2. "semantik ikki ma'nolilik" (Ambiguitatshypothese), 3. "aspekt" (Aspekthypothese), 3. "fe'l shakllarining kompleks ma'nolari" (Komplexitatshypothese). Shuningdek, olima perfektning ikki turini farqlaydi, ya'ni perfektiv va noperfektiv. Ya'ni, jumla tarkibidagi perfekt shakli chegaralanmagan fe'ldan yasaliib, harakat yoki jarayon o'z yakuniy chegarasiga yetmagan bo'lsa, bunday shaklni "noperfektiv" deb ataydi. Aksincha, perfekt – chegaralangan fe'ldan yasaliib, harakat yoki jarayon o'zining yakuniy nuqtasiga yetgan bo'lsa, bunday shakl perfektiv perfektivdir. Xuddi shunday fikrni [Thieroff 1994] ishida ham ko'rishimiz mumkin. Tilshunos noferfektiv perfekt (nonperfectic perfect) va perfektiv perfekt (perfectic perfect) turlarini ajratgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, perfektivlik va perfekt terminlari aspektuallik sohasida keng qo'llanib, ular fe'l semantikasi bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki, perfektivlik – tugallangan harakatni, perfekt esa fe'lning o'tgan zamon shaklini bildiradi. Ushbu terminlar o'zaro o'xshash bo'lsada, lekin ular farqlanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Камкина Ж. В. Выражение категории перфектности в немецком языке глагольной формой перфект. Автореф. дисс. канд. филол. наук. -Белгород. 2010. 25 с.

[2]. Ризаев Б. Х. Аспектная семантика перфектных и плюсквам перфектных форм немецкого глагола. – Самарканд, 2003. – 89 с.

[3]. Rolf Thieroff & Joachim Ballweg (eds.), *Tense systems in European languages. (Linguistische Arbeiten 308.)* Tübingen: Niemeyer, 1994.